

**O'ZBEK TILIDA NEOLOGIZM TURLARI VA ULARNING YONDOSH
HODISALARGA MUNOSABATI****Xolmuradova Jamila Irmetovna***Toshkent amaliy fanlar
universiteti dotsenti, f.f.n.**jamilaxalmuratova66@mail.ru***Ibragimova Shoir Normo'minovna***TAFU magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tabiatini saqlab qolishga intilayotgan bir davrda leksik neologizmlarga bo'lgan munosabat, tilning ichki resursda boyishiga xizmat qiluvchi individual-uslubiy neologizmlarni tadqiq etishga bo'lgan qiziqish ancha oshdi, harakatlar ko'lami kengaydi. Poetik nutqda uslubiy-estetik vazifa bajarishdagi imkoniyatiga ko'ra ijodiy-shaxsiy qo'llanishlar, ijodkor individual uslubini belgilovchi nutqiy hosilalar, badiiy niyatni yuzaga chiqarish, ifoda etish maqsadi bilan yuzaga keladigan muallif neologizmlari ijodkor asarlari tilining bir bo'lagi sifatida, qolaversa, tilning ichki imkoniyatlar bilan boyishi borasidagi muammolar yechimida ham ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: neologizm, umumiy, individual, individual-uslubiy, uslubiy-estetik, ijodiy-shaxsiy, lug'aviy, grammatik, individual til.

Jahon tilshunosligi leksik qatlamida neologik birliklar alohida o'rin tutadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti, madaniyatlararo va tillararo munosabatlar, insoniyat tafakkur ko'lamining o'sishi yangiyangi tushunchalar hamda ularni voqelantiruvchi umumiy neologizmlar va individual neologizmlarning lug'at qatlamida favqulodda paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqdaki, bu har bir xalq lug'at qatlamining izchil taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holat til istiqboli uchun xizmat qilishi bilan birga, uning milliylikiga u yoki bu darajada ta'sir ham ko'rsatishi mumkinligini inobatga olib, ularning ma'no-mazmun munosabatlari doirasini tadqiq etish dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan o'rin oladi.

Dunyo xalqlari o'z tilining kelajagi, milliy tabiatini saqlab qolishga intilayotgan bir davrda leksik neologizmlarga bo'lgan munosabat, tilning ichki resursda boyishiga xizmat qiluvchi individual-uslubiy neologizmlarni tadqiq etishga bo'lgan qiziqish ancha oshdi, harakatlar ko'lami kengaydi. Poetik nutqda uslubiy-estetik vazifa bajarishdagi imkoniyatiga ko'ra ijodiy-shaxsiy qo'llanishlar, ijodkor individual uslubini belgilovchi nutqiy hosilalar, badiiy niyatni yuzaga chiqarish, ifoda etish maqsadi bilan yuzaga keladigan muallif neologizmlari ijodkor asarlari tilining bir

bo‘lagi sifatida, qolaversa, tilning ichki imkoniyatlar bilan boyishi borasidagi muammolar yechimida ham ahamiyatga ega.

Manbalarda neologizmlar dastlab quyidagicha tasniflanadi: a) lug‘aviy neologizmlar; b) grammatik neologizmlar.

Shu bilan birga, lug‘at qatlamimizda frazeologik neologizmlar ham kuzatiladi. Manbalarda neologizm “yangi leksika” termini ostida ham o‘rganiladi. “Yangi leksika” ikkiga bo‘lib talqin qilinadi: a) sof yangi leksema; b) faollashgan leksema.

“Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko‘pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda tuzilgan bo‘lsa va tilda ma‘lum ma‘noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina individual nutq neologizmi umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi”.¹ Bu ta‘rif neologizm va individual neologizmlar chegarasini oydinlashtirishda qo‘l keladi.

Har ikkala neologizm ko‘rinishining yangilik bo‘yog‘i shartli, ya‘ni “yangilik maqomi” ma‘lum bir vaqt oralig‘ida bo‘ladi. Bugun yangilikka daxldor so‘z erta-indin shu xususiyatini yo‘qotishi, bora-bora tarixiy so‘zga ham aylanib qolishi mumkin. Tilshunos olim M.Abuzalova ta‘kidlagani kabi “...arxaizmlar o‘tmish qoldiqlari, neologizmlar esa kelajak kurtaklaridir”.² Neologizmlarni dastlab quyidagicha tasniflash aniqlikni ta‘minlashga xizmat qiladi: a) umumiy neologizmlar; b) individual-uslubiy neologizmlar.

Individual-uslubiy neologizmlarni ayni paytda ichki tarkiblash (neologizm-leksema, neologizm-semema; morfologik, sintaktik tarkibli neologizmlar; frazeologik neologizmlar va h.k.) ham mumkin.

Badiiy asarda uslubiy-estetik vazifa bajarishdagi imkoniyatiga ko‘ra individual nutq neologizmlari yuqoriroq mavqe egallaydi. Bu borada M. Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan neologizmlar vaqti-vaqti bilan tilda paydo bo‘lib tursada, badiiy matn uchun ko‘p ham ahamiyatli emas. Badiiy matn uchun ijodkorning o‘zi tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar estetik qiymatga molikdir”.³

Fanda mavjud “individual til”, “individual uslub” tushunchalari “individual-uslubiy neologizm” terminidan ko‘lami, funksional-semantik xususiyatiga ko‘ra kengligi shu hodisa borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham kuzatiladi¹⁹. Rus tilshunosligida individual-uslubiy neologizmlarning nazariy jihatlarini V.Kamenskiy asarlari misolida kuzatgan tadqiqotchi D.Xalyavina XX asrda ijod etgan V.Mayakovskiy, V.Xlebnikov, V.Kamenskiy, D.Burlyak, I.Severyanin kabilar ijodida mazkur hodisaning yorqin ko‘rinishlarini bayon etadi. Tadqiqotchi bu hodisani “individual-muallif so‘zlari” tarzida qo‘llashni ma‘qul ko‘radi. D.Xalyavina til lug‘at qatlamiga ijodiy yondashgan holda yangidan yasalgan so‘zlar (новообразование)

badiiy adabiyotda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini, bu kabi individual-muallif yangi so‘zlari muallifning dunyoqarashi, dunyoga nazari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Individual-muallif yangi so‘zlari, odatda, ikki hodisa (asos va affiks) chatishuvidan yuzaga keladigan okkazional holat hisoblanib, o‘zida g‘oyaviy mazmuniy yuk tashishini aytadi. Ko‘pgina adabiyotlarda okkazional va individual nutq neologizmi bir hodisa sifatida ta’riflanadi. O.Axmanovanning lingvistik terminlar lug‘atida okkazionalizmga uzual qo‘llanishning teskari ko‘rinishi tarzida qaralgan va u individual nutq natijasi sifatida baholangan.

O‘zbek tilshunosligida okkazionalizmning nazariy jihatlarini – lisoniy va nolisoniy tabiati S.N.Toshaliyeva tomonidan o‘rganilgan, okkazional so‘zlarning badiiy-estetik xususiyatlarini O.To‘xtasinova maxsus tadqiq etgan. Tadqiqotchi D.Shodmonova til / nutq / me‘yor hamda individual birliklar munosabati haqida fikr bildirib, til uchun har bir ijodkorning individual uslubi xarakter kasb eta olishini aytadi. “O‘zbek she‘riyatida, – deb yozadi tadqiqotchi, – an‘anaviy poetik leksika tarkibida qaraluvchi ko‘plab birliklar adabiy til uchun me‘yor sanalmaydi. Masalan, adabiy me‘yor chizig‘idan tashqarida deb qaraluvchi, biroq she‘riy nutqda faol uchraydigan qator birliklar borki, bu umumiylik sifatidagi adabiy tilni xususiylik sifatidagi she‘riy nutqqa zid qo‘yadi”.⁴

Kuzatishlarimiz natijasi o‘laroq okkazionalizm, neologizm, individual-uslubiy neologizmlarning bir-biriga munosabati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin. Mazkur hodisalarning uyg‘unligi shundaki, har uchulasi: – yangilik bo‘yog‘iga ega; g‘ayriodatiy birlik; – lug‘atlar qamrab olib ulgurmagan; – yangicha grafik shaklda hamda ma‘no-mazmunda bo‘ladi.

Xususiyligi shundaki, neologizm: yangiligi nisbiy holatda bo‘ladi; ham nutqiy, ham lisoniy hodisa sanaladi; asosan, o‘zlashma, qisman o‘z qatlamga tegishli bo‘ladi. Okkazionalizm: odatda, yasama so‘z holida bo‘ladi (*oyoqlibos, sukutchilar, paysalchilar, karamkor, kiyimgoh, yomg‘irxat, xalaxat*); nutqiy hodisa sanaladi; g‘ayriodatiy, ya‘ni bir marta qo‘llanishga mo‘ljallangan bo‘ladi; shaxsiy so‘z yasash va qo‘llash bilan bog‘liq; uzuallik va umumadabiy maromga nisbatan g‘ayriodatiy, maromsiz bo‘ladi.

Individual-uslubiy neologizmlarining xususiyati ham yuqoridagi fikrlar bilan qisman uyg‘un. Har qanday holatda har ikkala hodisa ham til ijodkorligi bilan bog‘liq, albatta. Ta’kidlash lozimki, individual-uslubiy neologizmlar: uslub talabi bilan yuzaga keladi; badiiy uslub ko‘rinishi sanaladi; poetik aktuallik uchun xizmat qiladi; til me‘yorlari doirasida (maromli) bo‘ladi; odatda, lug‘at qatlamining ichki boyishiga xizmat qila oladi; lisoniylashish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, til lug‘at qatlamida o‘zlashma so‘zlarning miqdor va sifat jihatdan ortishi shu tilning milliy tabiatiga ham ta’sir etmay qo‘ymaydi. Har bir xalq o‘z ona tili milliyligini saqlab qolishga intilayotgan ayni davrda kunora paydo

bo'layotgan zamonaviy o'zlashmalar masalasi alohida xarakter kasb etadiki, ularni tilimizning turkona tabiatiga muvofiq holda, tilning ontologik xususiyatlaridan kelib chiqib qabul qilish har doimgidan ko'ra dolzarb hisoblanadi.

Shunigdek, individual-uslubiy neologizmlar "umumiy neologizm" hodisasining tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur hodisa til lug'at qatlamining boyishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov U. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –T.: O'zbekiston, 1992. – B. 153.
2. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri....diss. avtoref. –T., 2009. – B. 34.
3. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari misolida): Filol. fan. nomz.diss. avtoref. – T.: 2027. – 135 b.;
4. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. (U.Azim she'riyati misolida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Samarqand, 2019. – 141 b.
5. Shodmonova D. Abdulla Oripov sheeriyatining lingvopoetik xususiyatlari (metaforik hodisalar misolida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Qarshi, 2019. – B. 30.